

**QO'SHMA GAPLARDA MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI ORQALI
PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI****Najmiddinova Marjona Qiyomiddin qizi**

O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrası

Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19857676>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmalolingvistikaning tayanch tushunchalaridan biri bo'lgan presuppozitsiya hodisasining o'rganilishi va qo'shma gaplarda mustaqil so'z turkumlari vositasida mazkur hodisaning nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan.

Maqolada qo'shma gaplar strukturasi va ularning semantik-pragmatik qurilishida mustaqil so'z turkumlarining tutgan o'rni tahliliy jihatdan yoritilgan. Maqolaning asosiy mazmunini presuppozitsiyaning nazariy poydevori, uning lisoniy tabiati hamda qo'shma gap tarkibiy qismlari orasidagi mantiqiy bog'liqlikni yuzaga keltirishdagi ahamiyati tashkil etadi.

Xususan, otlar predmetlik ma'nosi orqali, sifatlar belgi-xususiyatni konkretlashtirish orqali, olmoshlar esa ishora va anaforik bog'lanishlar vositasida yashirin axborotni – presuppozitsiyani qanday shakllantirishi tahlil qilinadi. Shuningdek, muloqot jarayonida paralingvistik va sotsial vositalarning ushbu lisoniy hodisaga ta'siri hamda matn ichidagi axborotning ixcham va mazmunli berilishida mustaqil so'z turkumlarining pragmatik imkoniyatlari ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Maqolada keltirilgan argumentlar qo'shma gaplarda ma'no qatlamlarini ochib berishda leksik-grammatik birliklarning vazifaviy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy vaziyat, presuppozitsiya, yashirin hukm, pragmatika, antropotsentrik paradigm, kognitiv bazasi, lisoniy kompetensiyasi, diskursiv jarayon, pragmalolingvistika, paralingvistik vositalar, qo'shma gap, sifat, ot, olmosh, sotsial vositalar.

Annotation. This article focuses on the issues of modern linguistics. It discusses the study of the phenomenon of presupposition, which is one of the core concepts of pragmalinguistics – a contemporary branch of linguistics – and explores the theoretical foundations of this phenomenon in compound and complex sentences through independent parts of speech. The article analytically highlights the role of independent parts of speech in the structure of combined sentences and their semantic-pragmatic formation. The core content of the paper consists of the theoretical framework of presupposition, its linguistic nature, and its significance in creating logical connections between the constituent parts of a sentence. Specifically, it analyzes how nouns through their objective meaning, adjectives through the concretization of character-traits, and pronouns through deictic and anaphoric references form hidden information – presupposition. Furthermore, the influence of paralinguistic and social means on this linguistic phenomenon during the communication process is examined from a scientific perspective, along with the pragmatic potential of independent parts of speech in delivering concise and meaningful information within a text. The arguments presented in the article serve to identify the functional characteristics of lexical-grammatical units in revealing the semantic layers of complex sentences.

Keywords: speech situation, presupposition, implicit judgment, pragmatics, anthropocentric paradigm, cognitive basis, linguistic competence, discursive process, pragmalinguistics, paralinguistic means, compound sentence, adjective, noun, pronoun, social means.

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы современного языкознания. Объектом исследования является феномен пресуппозиции, который выступает одним из ключевых понятий прагмалингвистики – нового направления лингвистической науки. В работе анализируются теоретические основы данного явления и его реализация в структуре сложных предложений посредством самостоятельных частей речи. В статье детально освещается роль самостоятельных частей речи в семантико-прагматическом построении сложных конструкций. Основное содержание работы составляет изучение теоретического фундамента пресуппозиции, её лингвистической природы, а также значения данного феномена в создании логической связи между компонентами предложения.

В частности, анализируется, как имена существительные через предметное значение, имена прилагательные через конкретизацию признаков, а местоимения посредством дейктических и анафорических связей формируют скрытую информацию – пресуппозицию. Кроме того, с научной точки зрения рассматривается влияние паралингвистических и социальных средств на данный лингвистический процесс в ходе коммуникации, а также прагматический потенциал самостоятельных частей речи в обеспечении лаконичности и содержательности передачи информации. Представленные в статье аргументы служат выявлению функциональных особенностей лексико-грамматических единиц при раскрытии смысловых пластов сложных предложений.

Ключевые слова: речевая ситуация, пресуппозиция, скрытое суждение, прагматика, антропоцентрическая парадигма, когнитивная база, языковая компетенция, дискурсивный процесс, прагмалингвистика, паралингвистические средства, сложное предложение, имя прилагательное, имя существительное, местоимение, социальные средства.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida inson omili va muloqot jarayonini tadqiq etishga bo'lgan e'tibor yangi bosqichga ko'tarildi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilshunosligida hali o'zining yakuniy ilmiy yechimini topmagan, nazariy jihatdan tizimlashtirilishi lozim bo'lgan masalalar hamon talaygina.

Xususan, presuppozitsiya hodisasi tilning lisoniy va nolisoniy sathlari tutashgan nuqtada joylashgan murakkab fenomen sifatida alohida diqqatni talab etadi.

Garchi o'zbek tilshunosligida 1980-yillardan e'tiboran pragmatik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lami kengaygan va gapning strukturaviy-semantik tahlilida presuppozitsion munosabatlarga urg'u berila boshlangan bo'lsa-da, bu boradagi izlanishlar ko'proq parcha-parcha (fragmentar) xarakterga ega. D.Lutfullayeva, U.Rahimov, N.Mahmudov kabi olimlarning ishlari o'zbek tili leksikasi va grammatikasida presuppozitsiyaning namoyon bo'lish shakllarini ochib berishda poydevor vazifasini o'tadi.

Biroq bugungi kunda presuppozitsiya shunchaki "matn osti ma'nosi" emas, balki so'zlovchi va tinglovchining umumiy kognitiv bazasi, lisoniy kompetensiyasi hamda diskursiv jarayonning ajralmas qismi sifatida qayta talqin qilinishi lozim.

Bu hodisaning o'zbek tili barcha sathlarida: fonosemantikadan tortib, pragmatik matn qurilishigacha bo'lgan doirada hali to'liq o'rganilmaganligi, mavzuning nafaqat dolzarbligini saqlab qolayotganini, balki fundamental tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Presuppozitsiya ifodalab keluvchi mustaqil soʻz turkumlaridan biri bu ot soʻz turkumidir.

Oʻzbek tilshunosligida ot soʻz turkumining grammatik va semantik tomondan tadqiq etilganligi bizga maʼlum. Bu borada ancha salmoqli ishlar qilindi. Ammo uning pragmatik tomondan oʻrganilishi borasidagi tadqiqotlar juda kam.

Ot soʻz turkumi ifodalab keladigan presuppozitsiyalarning oʻziga xos jihatlari koʻp. Ot soʻz turkumi birgina soʻz orqali biror vaziyatning yoki biror shaxsning kimligi va u haqida boshqa maʼlumotlar bera olishi mumkin boʻlgan soʻz turkumi hisoblanadi. Bunda otlarning qarindosh-urugʻlik munosabatlarini bildiruvchi soʻzlar, kishilarning kasbini bildiruvchi soʻzlar, narsa-buyumlarning nomlari, joy nomlarini bildirib keluvchi soʻzlar orqali ifodalanib kelishi mumkin boʻladi.

Ot soʻz turkumining presuppozitsiya ifodalab kelishini tushuntirish uchun biz badiiy asarlarga murojaat qilamiz. Masalan: *Har kim oʻz oldida bir narsa topib shunga koʻz tikkan va u narsada Zebi – oʻz otasini, Qurvonbibi – oʻz erini, Salti – qovogʻidan doim qor yogʻib turgan sovuq bir soʻfini koʻrardi.* (A.Choʻlpon “Kecha va kunduz”). Choʻlponning “Kecha va kunduz” asaridan olingan ushbu parchada Razzoq soʻfidan mehmondorchilikka ruxsat soʻrayotgan xotini, qizi va uning dugonasi Saltining holati keltirilgan. Bu jumlada *ota* va *qiz* soʻzlari orqali 1. *Razzoq soʻfining xotini borligi*, 2. *Uning farzandi borligi* haqidagi presuppozitsiyalar ifodalanmoqda.

Qarindosh-urugʻchilik munosabatlari orqali ifodalanadigan presuppozitsiyalarga bir qancha misollar keltirishimiz mumkin. Jumladan:

– *He, koʻchadagi bittasi borgandan koʻra – siz, mening otam borgani yaxshi emasmi?!*

(Erkin Aʼzam “Tanho qayiq”) – *otam* soʻzi;

Bobolarim jasoratiga

Guvoh – alvon qonga choʻmgan yoʻl. (X. Davron “Men koʻksingga boshimni qoʻydim”).

Ushbu parchada – *bobolarim* soʻzi;

– *Qirpichoqda oʻldi akam,*

Senda ekan ayb, murdor! (E.Vohidov “Ruhlar isyoni”)

Sifat soʻz turkumining presuppozitsiya ifodalashida ikki xil omil mavjud. Ular: ichki omillar va tashqi omillar hisoblanadi. Ichki omillarga sifatning semantik imkoniyatlari hamda fakultativ maʼno komponenti kabilar kirsa, tashqi omillarga nutqiy vaziyat, kontekst, tinglovchi hamda soʻzlovchining nutqiy jarayon haqidagi umumiy bilimlari, sifat ifodalab kelgan belgining yuzaga kelishi bilan bogʻliq jarayon kiradi.

Sifatlar pragmatik asosda tadqiq etib oʻrganilmagan boʻlsa-da, u haqida ayrim maʼlumotlar berib oʻtilgan. Bu holat “*Men qiziq kitoblarni oʻqiyman*” gapi misolida beriladi.

Ushbu gapdagi *qiziq* sifati (Boshqa kitoblarni oʻqimayman) presuppozitsiyaga ishora qilish holatini koʻrsatib oʻtgan. [1]

Muayyan gaplarda sifatning presuppozitsiya ifodalab kelishi uning lugʻaviy maʼnosi orqali anglashiladi. Masalan, *Shiftdagi oltin qandilga terilgan oʻnlarcha shamlar shuʼlasida shahzodaning soʻnik yuzi goʻyo ganchdan yasalgan niqobday sovuq tuyular, chuqur botgan koʻzlari bejo charaqlar, qoʻsh-qoʻsh tilla uzuk taqilgan ingichka qoramtir barmoqlari asabiy titrardi* (O.Yoqubov “Ulugʻbek xazinasi”) jumlasida kelgan *soʻnik*, *sovuq*, *chuqur*, *ingichka*, *qoramtir* kabi sifatlar mavjud. Bu sifatlar oʻzlari ergashib kelgan soʻzlar bilan qoʻshilib presuppozitsiya ifodalab kelmoqda. Jumladan, *soʻnik yuzi* birikmasi orqali *shahzodaning holatini bir muncha horgʻin ekanligi* toʻgʻrisidagi presuppozitsiya kelib chiqmoqda.

Sifat yasovchi ba'zi qo'shimchalar o'zining grammatik ma'nosidan presuppozitsiya anglashinib turadi. Masalan, *Daryo qirg'og'ida birorta ulovli yo'lovchini kutar edim* (G'.G'ulom "Shum bola") gapida kelgan *ulovli* yasama sifati tarkibidagi *-li* qo'shimchasi presuppozitsiya ifodalamoqda. Uning presuppozitsiyasi: *Men piyodaman* kabilardir. Bunga yana misol qilib, *Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas edi, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa, sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim* (O.Yoqubov "Muzqaymoq") parchasini keltirishimiz mumkin. Bu gapda *sersurat* so'zi sifat so'z turkumi bo'lib, uning presuppozitsiyasi: qoplarda sersurat kitoblar bor.

Presuppozitsiyaga yo'l ochuvchi lingvistik vositalar ichida olmoshlar (ayniqsa, ko'rsatish olmoshlari ham sintaktik sathda gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtirib, presuppozitsiyaga ishora qila oladi.

Olmoshlar presuppozitsiya anglati olishi uchun o'rinbosarlik, ishora qilish xarakteridan kelib chiqadi. Ayniqsa, ko'rsatish, so'roq olmoshlari presuppozitsiya anglatishda aktiv qo'llaniladi. *Hanuz esimda, o'sha uchrashuvdan boshlandi bu hol* (H.Olimjon) gapida "Avval qandaydir uchrashuv bo'lgan" degan presuppozitsiya o'sha ko'rsatish olmoshi orqali anglashilmoqda.

Ko'rsatish olmoshlari yuklama va ko'makchilar bilan kelganda, qaysi yuklama yoki ko'makchi bilan kelishiga qarab, o'sha yuklama va ko'makchilar bilan birgalikda presuppozitsiya anglatib keladi. Bunday holatda ko'proq yuklama yoki ko'makchi aktivlik bilan presuppozitsiya anglati, olmoshlar birmuncha passivroq rol o'ynaydi. Masalan, kecha o'sha ham kelgan ("Sharq yulduzi") gapidagi "boshqalar ham kelgan" presuppozitsiyasi ko'proq ham yuklamasiga taalluqliroqdir. [2]

Olmoshlar referensiya orqali yashirin ma'no hosil qiladi. Masalan, U ham imtihondan o'tdi, lekin boshqalar yiqildi. Presuppozitsiya: boshqalar ham imtihon topshirgan.

Bu masala yana ko'tarildi. Presuppozitsiya: bu masala oldin ham muhokama qilingan.

Presuppozitsiya uchun ravish so'z turkumi ham vosita bo'la oladi. Bu jihatdan tarz va payt ravishlari faol hisoblanadi. Masalan: U avval qanday mehribon bo'lsa, hozir ham shunday edi gapida "U avval ham unga mehribonlik qilgan" presuppozitsiyasi avval ravishi yordamida anglashilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Presuppozitsiya hodisasi umumlingvistik hodisa hisoblanadi. Barcha dunyo tillarida bu hodisa mavjud. Lekin har bir tilning o'ziga xos xususiyati bo'lganidek, presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar ham o'ziga xos. O'zbek tilida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarni umumplanda lingvistik vositalar, ekstralingvistik vositalar, paralingvistik vositalar, sotsiologik vositalarga ajratish mumkin. Chunki presuppozitsiya dastlab lingvistik hodisalar asosida yuzaga kelsa ham, shu lingvistik hodisalarga qo'shimcha tarzda ishora qiluvchi vositalar ham mavjud.

Ularni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas. Lekin shuni unutmaslik kerakki, ekstralingvistik asoslar til strukturasi kirmaydi, u faqat kommunikatsiyada qo'shimcha vosita sifatida ishtirok etadi va presuppozitsiyaga ishora qiluvchi yordamchi vosita vazifasini o'taydi. Shuning uchun presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

I. So'z turkumlari:

1. ot so'z turkumi va undagi kategoriyalar:

a) kelishik kategoriyasi;

b) o'xshatish, funksional shakllari.

- 2) sifat soʻz turkumi;
- 3) olmosh soʻz turkumi;
- 4) ravish soʻz turkumi;
- 5) yuklamalar;
- 6) koʻmakchilar.

II. Sintaktik vositalar:

- 1) soʻroq gaplar;
- 2) oʻxshatishli qurilmalar ishtirok etgan gap;
- 3) soʻz tartibi.

Lingvistik vositaga yordamchi vositalar:

III. Ekstralingvistik vositalar:

- 1) hayotda mavjud boʻlgan turli situatsiyalar;
- 2) paralingvistik vositalar;
- 3) sotsial vositalar.

Demak, presuppozitsiyani yuzaga keltirishda xilma-xil vositalar ishtirok etar ekan. Bu vositalar ichida lingvistik vositalar alohida ahamiyat kasb etadi va hamisha birlamchi ishora vositasi sifatida qatnashadi. Presuppozitsiya anglatishda lingvistik vositalarga qoʻshimcha tarzda ekstralingvistik vositalar ham ishtirok etadi. Ular faqat nutq jarayonida lingvistik vositalarni kuzatib boruvchi faktorlardir.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, oʻzbek tilshunosligida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar sirasiga kiruvchi sifat mustaqil soʻz turkumining presuppozitsiya ifodalashini oz boʻlsa-da koʻrib chiqishga harakat qildik. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, sifat soʻz turkumi borliqdagi predmetlarning belgi-xususiyatini bildirib kelib, gaplarda presuppozitsiya ifodalab kelishi mumkin.

Bu holatning yuzaga kelishida sifat oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzning yashirin maʼnolarini ifodalaydi. Belgi-xususiyatni ifodalash uchun butun boshli gap emas, balki sifatning muayyan soʻzga bogʻlanib kelishi orqali maʼlum tejamkorlikka erishiladi. Ayni shu tejamkorlik asosida sifat presuppozitsiya ifodalaydi.

Shu bilan birga ot soʻz turkumining presuppozitsiya ifodalab kelishi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrstaib oʻtishga harakat qildik. Uni aniqlashda badiiy asarlarda kelgan ot soʻz turkumlaridan foydalandik. Jumladan, shaxs otini bildiruvchi soʻzlar, kasbni anglatuvchi soʻzlar, qarindosh-urugʻchilik maʼnolarini anglatuvchi ot soʻz turkumidagi soʻzlardan faol foydalanildi.

Qoʻshma gaplarda presuppozitsiya quyidagi omillar orqali yuzaga keladi:

- a) Leksik birliklar (yana, ham, hatto)
- b) Grammatik shakllar
- c) Soʻz turkumlarining semantik yuklamasi

Mustaqil soʻz turkumlari presuppozitsiyani ifodalashda quyidagi vazifalarni bajaradi: maʼnoni kuchaytiradi, uni aniqlashtiradi va yashirin maʼnoni barqaror qiladi, shuningdek, nutqning mantiqiyli, taʼsirchanligi, qisqaligini taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixoʻjayeva S. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 215.

2. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. 2001. – №4. – B. 56-57.
3. Раҳимов Ў.Э. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. Филол. фан...номз...дисс.. – Андижон, 1994. – Б. 159.
4. Ҳақимов М. Тагмаъно ва тагбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 2001. - №1. – Б. 133.
5. Hakimov M. O‘zbek pragmlingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2013. – 173 b.
6. Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция / Айюб Гулом ва ўзбек тилшунослиги: Илмий мақолалар тўп. – Тошкент. 2004. – Б.258.
7. Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. – Тошкент. 2005. - №5. – Б.132.
8. Сайфуллаева Р., Менглиев Б, Бокиева Г. Курбанова М., М.Юнусова, Абузалова М, Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – 620 б.
9. Safarov Sh. Pragmlingvistika. – Toshkent, 2008. – 285 b.
10. <http://library.ziyonet.uz>
11. <http://www.sharqjurnali.uz>